

SHAYXONTOHUR TUMANINING TURISTIK SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Alfraganus universiteti o'qituvchisi,

Abdullayeva Saodatxon Murod qizi

Alfraganus universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Shayxohtohur tumanining turistik salohiyati va turizm yo'nalishidagi amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar.*

Аннотация: *Туристический потенциал Шейхантахурского района и реализуемые перспективные проекты в сфере туризма.*

Abstract: *The tourism potential of the Shaykhantokhur district and the promising projects being implemented in the field of tourism.*

Kalit so'zlar: *Turizm, sayyoh, majmua, turizm vazirligi, rekonstruksiya, milliy.*

Ключевые слова: *Туризм, турист, комплекс, министерство туризма, реконструкция, национальный.*

Keywords: *Tourism, tourist, complex, Ministry of Tourism, reconstruction, national.*

Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur. Buni davrning o'zi taqazo etmoqda.

Sh. Mirziyoyev

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishni asosiy masalalaridan biri bu, turizmni rivojlantirish masalasidir. Shunga ko'ra yurtimizda turizmni rivojlantirishda jadal ishlar olib borilmoqda. Buning asosida Prezidentimizni bugungi kunda turizm sohasiga oid chiqarayotgan qaror va farmonlarini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo'yicha Kontseptsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to'g'risida»gi qarorini hamda Prezidentimizning 2017 yil 16 avgustdagi «2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, 2018–2019 yillarda soha oldida turgan muhim masalalar yechimiga bag'ishlangan alohida dastur tasdiqlandi va uning to'liq ijrosini ta'minlash va sohada olib borilayotgan ishlarni idoralararo muvofiqlashtirish maqsadida Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirish kengashi tuzildi. Ushbu qarorlarga muvofiq boy o'tmishimizdan dalolat beradigan qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylash, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan milliy hunarmandchilik markazlari hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni ham

rivojlantirishga oid ishlar olib borilishiga sabab bo'lmog'da. Turizm sohasiga e'tiborning eng yuqori cho'qqisi bu Turizm vazirligining tashkil etilishi bo'ldi. Turizm vazirligi 2021-yil 6-aprelda Shavkat Mirziyoyev farmoniga binoan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida tashkil etildi. Shunga muvofiq turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi lavozimi tugatilib, uning o'rniga turizm va sport vaziri lavozimi ta'sis etildi. Prezident tomonidan 2021-yil 6-aprel kuni „Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida“gi qaror qabul qilindi. Turizm va sport vaziri etib Aziz Abduhakimov tayinlandi. O'zbekiston juda chiroyli, tarixiy va turizm salohiyati kuchli bo'lgan davlat hisoblanadi. Yiliga minglab sayohatchilar mana shu go'zallikdan barhamand bo'lish uchun, nafaqat go'zallik balki tarixi ming-million yilga borib taqaladigan tariximizni o'rganish, tariximiz bilan yaqindan tanishish uchun tashrif buyurishadi. O'zbekistonning sayyohlar tashrif buyuradigan asosiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xoram, Toshkent hisoblanadi. Lekin shahar emas oddiygina bir tuman miqyosida oladigan bo'lsak yurtimizdagi har bir tumanning o'ziga yarasha tarixi, me'moriy yodgorliklari, diqqatga sazovor joylari juda ko'p. Misol tariqasida Toshkent shahridagi Shayxontohur tumanini oladigan bo'lsak, tumanda „Suzuk ota“ majmuasi, „Shayx Xovandi Tohur“ ziyoratgohi, „Azlarxon Eshon“ majmuasi, „Eshonzodalar“ sag'anasi, „Chilonzor Oqtepsi“, „Ko'k masjid“ arxitektura yodgorligi, „Ko'k to'nli ota“, Abdulla qodiriy uy muzeyi, G'olib Jorj ibodatxonasi, Ko'kaldosh madrasasi, Toshkent sirki, Toshkent city shuningdek, Anhor Lokomotiv bog'i shular jumlasidandir. Har bir majmuaning o'z yaralish tarixi bor. Ushbu yuqorida sanab o'tilgan manzillar doimo sayyohlar tashrifi tufayli gavjum. Mana shunday joylardan biri bu Suzuk ota majmuasi. Toshkentdagi me'moriy majmua barcha hunarmandlarining buyuk ustози – Suzuk-Otaga bag'ishlangan. Bu odam butun shaharda va hatto undan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Suzuk Ota o'zining iste'dodi, odamlarni birlashtirish qobiliyati, xayrli ishlari bilan mahalliy aholi orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Majmua 1392-yilda Amir Temur davrida qurilgan masjid va maqbaradan iborat. 2019-yilda ushbu diniy binoda kapital rekonstruksiya ishlari o'tkazildi. Yana biri esa Shayx Xovandi Tohur majmuasi bo'lib, u Toshkentdagi me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Bezaksiz, ichki devorlari chuqur ravoqli, darchalariga koshinkori panjaralar o'rnatilgan bo'lib, xonalar gumbazlar bilan yopilgan, go'rxonaning qo'shqavatli gumbazi 12 qirrali asosga o'rnatilgan. Keyinroq atrofiga chillaxona, XV asrda esa Yunusxon maqbarasi qurilgan. Uch masjid binosi, minora, Eshon quli dodho madrasasi saqlanmagan. Tahrif buyuruvchilari soni bilan Suzuk ota va Shayx Xovandi Tohur bilan tenglasha oladigan va ular bilan bir qatorda tilga olinadigan bir joy bor. U ham bo'lsa Abdulla Qodiriy uy-muzeyi. 2019 yil dekabr sanasida Toshkent shahri Shayxontohur tumani, Samarqand Darvoza ko'chasida yashagan yozuvchi Abdulla Qodiriy uyida ochilgan. Ayni shu muzeyda yozuvchining

o‘zi ijodidan, o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari namunalari kutubxonada vujudga kelgan. Hovli sahni devorlariga o‘zbek va jahon yozuvchi-shoirlarning A.Qodiriy ijodi haqidagi fikrlari qayd etilgan. Xona devorlariga ilingan adibning asl qiyofasini aks ettiruvchi fotosuratlar Qodiriy ijodini yaqindan tanishtiradi. Shuningdek, bu yerda gazeta va jurnallar, A.Qodiriy ijodi namoyon ettirilgan ilk kitoblar mavjud. Muzeiy ixlosmandlarini xonalardan birida yozuvchi o‘z asarlarini yozganida, oila a‘zolari bilan birga bir dasturxonada yig‘ilishi e‘tiborini chetda qoldirmaydi. Muzeiy hovlisida haykaltarosh Bahrom Norboyev tomonidan mukammal ishlangan yozuvchi haykali o‘rnatilgan. Unda adib teran fikrda, bir qo‘lida kitob tutgan holda gavdalantirilgan. Uy-muzeida adibning, o‘zbek va jahon ijodkorlarining asarlaridan iborat mo‘jaz kutubxonasi tashkil etilgan. Naqshinkor, baland yog‘och ustunli yo‘lak uzra uy-muzeini ohista ko‘zdan kechirar ekansiz hovli devorlariga Qodiriy ijodiga oid o‘zbek va jahon adiblarining bitilgan fikrlari yozuvchi nainki yurtimiz, balki xalqaro miqyosda ham alohida e‘tirof etilgan ijodkor ekanini yana bir karra anglaysiz. Kenggina Toshkentning avvalgi ko‘rinishi fotolarda aks etgan xona yozuvchi ijodini batafsil o‘rganishga mo‘ljallangan. Boshqa xonada – mo‘jaz galereyada uning hayoti, ijodi, ma‘naviy jasorati aks ettirilgan kartinalar jamlangan. Uning ilk asarlari nashr etilgan gazeta va jurnallar, dastlabki kitoblari, boshqa tillarga o‘girilgan kitoblari ham shu yerda mujassam. Sal narida alohida turar joy. O‘sha davr muhitiga hamohang ko‘rinish kasb etgan xonalarning birida adib ijod qilgan, umr kechirgan, oilasi, farzandlari bilan dasturxon atrofida jam bo‘lgan. Shuningdek, Shayxontohur tumanida ibodatxona mavjud bo‘lib, uni G‘olib jorj ibodatxonasi deyishadi. O‘zbekistondagi nafaqat O‘zbekiston balki birgina Shayxontohur tumani hududida mana shunday ibodatxona va cherkovlarning borligi bu O‘zbek xalqini qanchalar oily himmat, diniy bag‘rikengligini ko‘rsatib beradi. Toshkent shahar Shayxontohur hududida qurilayotgan biznes markazi bo‘lmish Tashkent city. Shayxontohur tumanida, Alisher Navoiy shoh ko‘chasi, Olmazor va Furqat ko‘chalari hamda Islom Karimov shoh ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Tashkent City IBC doirasida biznes, turar-joy xonadonlari va hordiq chiqarishni birlashtirgan tadbirkorlik faolliigi zonasi hisoblanadi. “Tashkent City” IBC loyihasining boshqaruvchi kompaniyasi “Tashkent City” direksiyasi hisoblanadi. Buzilgan Olmazor va O‘qchi mahallalari o‘rnida, umumiy maydoni 80 gektar bo‘lgan hududda qurilish ishlari olib borildi. Bu O‘zbekistondagi bir martalik eng yirik qurilish loyihasi edi. Loyihaning qurilishi xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirildi. Toshkent city bugungi kunda ertayu kech nafaqat mahalliy tashrif buyuruvchilar balki horijiy mehmonlarni ham o‘z bag‘riga oladi.

Tashrif buyurgan turistlar Tashkent cityni go‘zalligidan bahramand bo‘lishlari, suratga tushishlari, shopping qilishlari, u yerda joylashgan restoranlarda yevropa va o‘zbek milliy taomlaridan bahramand bo‘lishlari mumkin. Tashkent city yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Navbatdagi biz keltirib o‘tadigan manzil bu Toshkent sirki. O‘zbek va boshqa davlatlar

sirk artistlarining chiqishlarini namoyish etuvchi yirik statsionar sirklardan biri. olib kirdi. Mustaqillik yillarida ya'ni 1991—2004-yillar mobaynida 100 dan ortiq sirk tomoshalari, 10 ta sirk attraksion va 20 dan ortiq mavzuli tomoshalar sahnalashtirildi 1999-yil Toshkent sirki binosi qayta ta'mirlanib, zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlandi. Toshkentdagi nufuzi baland, dovrug' qozongan madrasalardan biri ham aynan shayxontohur tumanidadir. Gap ko'kaldosh marasasi haqida ketyapti. Madrasa tarixi uzoq yillar-u, ko'hna tarixga borib taqaladi. Ko'kaldosh madrasasining tashkil etilishi Shayboniylar davrining ikki mashhur shaxsi — Buxoro xonligining nufuzli amaldori Qulbobo Ko'kaldosh va Toshkent hokimi Darveshxonning nomlari bilan bog'liqdir.

Ayrim, asosan, ilmiy-ommabop nashrlarda madrasa XVI asrda Qulbobo ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan deyilgan va boshqa, ayniqsa inqilobdan oldingi asarlarda u Darveshxon tashabbusi bilan qurilgani yozib qoldirilgan. Ko'kaldosh madrasasi Buxoro xonligi, Toshkent shahri o'rta asr shahristonining janubiy chekkasida qurilgan, hozirgi ko'cha o'rni handaq bo'lgan. Ko'kaldosh madrasasi XVIII asrning 1-choragida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy sifatida foydalanilgan. 1866- va 1886-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo'lgan peshtoqi qayta tiklangan. 1946-yilgi zilziladan ham qattiq shikastlangan. Madrasa 1930—1960-yillarda butunlay qayta ta'mirlangan. Guldastalarining balandligi 2-qavat bilan deyarli tenglashtirilgan. Bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan. Madrasaning old tomonida an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. Ko'kaldosh madrasasi hujralaridan birida Furqat 1889—1891-yillarda Toshkentda bo'lgan vaqtda bir muddat shu madrasada yashagan. Hamza 1910—1911-yillarda madrasa hujralaridan birida istiqomat qilgan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini ta'minlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofni obodonlashtirish ishlari olib borilgan.

Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan 2008-yilda Ko'kaldosh madrasasining kirish peshtoqi va old qismi ta'mirlangan. Ko'kaldosh madrasasi 1991-yildan O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufiga o'tkazilib, binoda shu idoraga qarashli o'rta maxsus islom bilim yurti o'z faoliyatini boshlagan. Shayxontohur manidagi ko'ngilochar maskanlar haqida gap ketishi bilan hammaning ko'z oldiga Anhor lokomotiv istirohat bog'i kelsa kerak. Ushbu ajoyib bog' o'zining ajoyib arxitekturasi bilan odamlarni o'ziga jalb etadi. Bunga sabab bog' turli xil arg'imchoqlari bilan cheklanib qolmay, o'z hududida O'zbekistondagi barcha viloyatlarning kichraytirilgan modelini o'z ichiga olgan. Bog' ichida 12 ta kichik-kichik ko'chalar bo'lib, ular viloyatlarning nomi berilgan. Qaysi viloyat nomi yozilgan ko'chaga kirsangiz o'sha viloyatning kichraytirilgan modeli, milliy kiyimlari-yu turli xildagi amaliy san'at durdonalariga ko'zingiz tushadi. Agar ushbu bog'ga tashrif buyursangiz sizda kichik vaqt ichida O'zbekistonning istalgan viloyatida bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hali hammasi emas, yana ko'plab Shayxontohur tumanida joylashgan qator diqqatga sazovor joylaridan bahramand bo'lishingiz mumkin.

Turizm yurtimizda kundan kunga keng quloch yozmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazgani ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda. Tahlillarga ko'ra, turistlar havo transportida uchish vaqti 5 soatgacha bo'lgan o'lkalarga eng ko'p sayohat qiladi. Mamlakatimiz atrofida bunday masofada 60 ga yaqin davlat, 3 milliard aholi bor. Yiliga ularning qariyb 360 millioni xorijga sayohat qiladi. Bu ulkan turizm bozori degani.

O'tgan yili yurtimizga 6,7 million nafar sayyoh kelgan. Diyorimiz 10 dan ortiq nufuzli xalqaro nashrlarda eng jozibali turistik maskan sifatida e'tirof etildi. Bu e'tirof tabiiyki barchamizda hech shubhasiz faxr tuyg'usini uyg'otishi turgan gap. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish ustuvor vazifa ekanini ta'kidladi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Madaniyat vazirligiga turizm marshrutiga kiritilgan ob'ektlar sonini joriy yilda 800 taga, 2025 yilda esa 2,5 mingtaga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek barcha hududlar singari Shayxontohurda ham o'zgarishlar katta. Bugungi kunda Shayxontohur tumanida Turizmni rivojlantirish uchun yana ko'plab say-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Kundan kunga yangi turistik manzillar vujudga kelyapti. Tumandagi diqqatga sazovor, tarixiy, me'moriy joylarga turlar tashkil etilyapti. Turizmning barcha turlari deysizmi barcha yo'nalishlari rivojlanib taraqqiy etyapti. Xususan, Respublikaning turizm salohiyatini yanada oshirish, xususan, Toshkent shahrining eski shahar hududidagi mavjud madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-diniy obyektlardan samarali foydalangan holda turizm tarmog'ini rivojlantirish, bo'sh turgan bino va inshootlardan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi manzili bo'yicha joylashgan sobiq "Chorsu" mehmonxona kompleksining bino va inshootlari, "Chorsu" maydoni uzoq vaqt davomida bo'sh turganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Toshkent shahar hokimligi va "Demir group" Turkiya kompaniyasi o'rtasida mehmonxona kompleksi va biznes markazi tashkil etgan holda "Chorsu" mehmonxonasini rekonstruksiya qilish sohasida turizmni rivojlantirish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi. Bu ham yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun qo'yilgan katta qadamlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Shayxontohur tumanining turistik salohiyati juda yuqori va yaqin kelajakda turizm yo'nalishida amalga oshiriladigan istiqbolli rejalarining salmog'i keng. Yaqin kelajakda Shayxontohur tumani Jahon turizmi industriyasiga

shahdam qadamlar ila kirib keladi. Bu esa turistlar oqimini yanada jadallashtiradi, iqtisodiyotga sezilarli moliyaviy daromad keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<http://agroturizm.uz>

<https://uz.m.wikipedia.org>

<https://darakchi.uz>